

MULOQOTNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI UNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Bektursinova Lalaxan Xojanazarovna

QDU, Pedagogika va psixologiya kafedrası docenti, PhD.

Matyoqubova Munira Davranbek qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti, "Amaliy psixologiya" yo'nalishi III-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714285>

Annotatsiya. Mazkur maqolada muloqotning yoshga xos xususiyatlarini ochib berilib, muloqotning shaxs shakllanishidagi o'rni yoritib beriladi. Go'dakda muloqot ko'lamining kengayishi va nutqning paydo bo'lishi va ilk bolalik davrida nutqning o'sishi, muloqotning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib ko'rsatilgan va ota-onalarning go'daklarda muloqot o'sishi jarayonidagi o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot uslubi, emotsionallik, go'daklik, ilk bolalik davri, temperament, nerv tizimi, kommunikativ, ijtimoiy rol.

AGE-RELATED CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION AND ITS ROLE IN PERSONALITY FORMATION. COMMUNICATION IN INFANCY AND EARLY CHILDHOOD

Abstract. This article reveals the age-related characteristics of communication and highlights the role of communication in personality formation. The expansion of the scope of communication in an infant and the emergence of speech and the growth of speech in early childhood, the peculiarities of communication are highlighted, and the role of parents in the process of communication growth in infants is studied.

Keywords: Communication style, emotionality, infancy, early childhood, temperament, nervous system, communicative, social role.

ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ. ОБЩЕНИЕ В МЛАДЕНЧЕСТВЕ И РАННЕМ ДЕТСТВЕ

Аннотация. В данной статье раскрываются возрастные особенности общения и освещается роль общения в формировании личности. Освещены расширение диапазона общения у младенца и появление речи и развитие речи в раннем детстве, особенности общения и изучена роль родителей в процессе развития общения у младенцев.

Ключевые слова: Стиль общения, эмоциональность, младенчество, раннее детство, темперамент, нервная система, коммуникативная, социальная роль.

Kirish

Muloqot har bir insonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir odamning muloqotdagi uslubi, ohangi, ifoda vositalari va kommunikativ xatti-harakatlari uning individualligini aks ettiradi. Bu xususiyatlar tug'ma (temperament, nerv tizimi) va orttirilgan (tajriba, tarbiya, ijtimoiy muhit) omillar asosida shakllanadi. Muloqot — bu ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasida axborot almashinuvi, emotsional yaqinlik, hamkorlik va ijtimoiy tajriba o'rnatilish jarayonidir. Shaxsning shakllanishi esa insonning individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirida yuzaga keladi. Shu jihatdan muloqot bolada: dunyoni idrok etish qobiliyati, o'zini anglash, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirish, emotsional bog'lanishlar shakllanishi, ijtimoiy rol va harakatlarni egallash kabi jarayonlarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Asosiy qism

Muloqotning yoshga xos xususiyatlari va uning shaxs shakllanishidagi o'rnini insonning ruhiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh bosqichida muloqot o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi va bu jarayon bolaning shaxs sifatida kamol topishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Go'daklik davrida muloqot, asosan, emotsional aloqa shaklida bo'ladi. Bu bosqichda bolaning ona yoki unga yaqin kishilar bilan o'rnatgan hissiy bog'lanishi uning kelajakdagi ishonch hissi va ijtimoiy munosabatlarga tayyorligini belgilaydi. Emotsional muloqot orqali bola atrofidagi dunyoni idrok qilishni boshlaydi.

Maktabgacha yoshda bolalar og'zaki muloqotni faol egallay boshlaydi. Bu davrda nutq rivojlanadi, bolalar savol berish, tushuntirish, o'z fikrini ifodalash orqali atrofidagi insonlar bilan o'zaro aloqa o'rnatadi. Muloqotning bu bosqichi ijtimoiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va madaniyat elementlarini o'zlashtirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maktab yoshida bolalarda muloqot nafaqat o'yin va hissiy ehtiyojlarni qondirish, balki ta'lim olish, bilim va ko'nikmalarni egallash vositasiga aylanadi. Bu davrda muloqot orqali bola o'z o'rnini anglaydi, jamoadagi vazifalarini bajaradi, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. O'qituvchi va tengdoshlar bilan muloqot bolaning shaxsiy fazilatlarini — mas'uliyat, mustaqillik, o'z-o'zini boshqarish — rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'smirlik davrida muloqot chuqur psixologik ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda inson o'zligini anglash, ichki dunyosini ifoda etish va o'ziga xoslikni shakllantirishga intiladi.

Muloqot o'smirlar o'z fikrini bildirish, qarashlarini himoya qilish, tengdoshlar bilan ijtimoiy mavqeni belgilash imkonini beradi. Shu orqali shaxsning mustaqil fikrlashi, o'z qarorlari uchun javobgarlik hissi shakllanadi. Umuman olganda, muloqot har bir yosh bosqichida bola va yoshlarning ichki dunyosini boyitadi, ular orasida ijtimoiy aloqalar tizimini shakllantiradi va shaxsiy rivojlanishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Inson hayotining ilk bosqichlari — go'daklik va ilk bolalik davri — uning keyingi ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu davrda muloqotning tutgan o'rnini beqiyosdir. Go'dak tug'ilgan ilk kunlardan boshlab atrofidagi insonlar, ayniqsa onasi bilan o'ziga xos muloqotga kirishadi. Bu muloqot nafaqat nutqni shakllantiradi, balki bola shaxsining dastlabki asoslarini ham belgilaydi.

Oilada bola tug'ilishi bilan oila a'zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar.

Lekin chaqaloq muloqotga darhol tayyor bo'lmaydi: uxlaydi, yig'laydi va emadi.

Chaqaloq o'zining hayotini shartsiz refleksi, ya'ni qichqiriq bilan boshlaydi. Birinchi qichqiriq nutqning birinchi belgisidir. Ayrim olimlar birinchi qichqiriqni salbiy emotsiya deb ataydilar. Haqiqatdan ham chaqaloq o'zining qichqirig'i bilan uyquga, ovqatga, issiqlikka bo'lgan ehtiyojini bildiradi.[1.67]

Insonning tabiati shundayki, u atrofdegilar bilan muloqotda bo'lmasdan yashay olmaydi.

Bola tug'ilganda uning onasi o'zining mehrini muloqot orqali beradi. Shuningdek, oilaning boshqa kattalari ham chaqaloq bilan muloqotda bo'lmagan asdan turlamaydi. Kattalar tomonidan bo'ladigan to'g'ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi.

Chaqaloq bir oylik bo'lganda «ga», «da», «ua» kabi nutq belgilari paydo bo'ladi.

Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo'ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning labi va ko'zlariga qarashdan boshlanadi. Ijroiy muloqotda bo'lish uchun kattalar bolaga ko'proq kulgulari bilan ta'sir etishlari maqsadga muvofiq. Bolani qo'lga olib ko'targanda u juda xursand bo'ladi.

Biryarim — ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o'zining kulgusi bilan javob qaytaradi. Ona bola uchun ehtiyojlarini qondiruvchi eng asosiy kishi. Ona uchun ham bola barchadan aziz.[2.45]

Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo'ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin. Hatti-harakat xulq me'yorlarini bolalar kattalardan o'rganadilar. Bu davrda bola xulqining motivi anglanilmagan bo'ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog'liq.

Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini awalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolada kattalarning muloqoti orqali o'sadi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. [3.98] Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so'zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular harakatga signal bo'lib xizmat qiladi. 2 yoshli bolalar oldida o'yinchoqlar turgan bo'lsa onasi unga «ber menga» deb o'yinchoqni ko'rsatsa darhol bola uni olib beradi. «mumkinmas», degan so'z bolaning harakatlari to'xtashiga signal bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Muloqotdagi yoshga xos xususiyatlar bu – insonning yoshi ortib borishi bilan uning muloqot qilish uslubi, ehtiyojlari, maqsadlari va ifoda shakllarining o'zgarishidir. Har bir yosh bosqichida: bola yoshida muloqot o'yin orqali, hissiy va harakatlarga boy tarzda kechadi; til o'rganish va ijtimoiylashuv boshlanadi. O'smirlik davrida o'z fikrini mustaqil ifoda qilishga intilish kuchayadi, tengdoshlar bilan muloqot muhim o'rin tutadi. Yoshlikda muloqot ko'proq maqsadga yo'naltirilgan, professional va shaxsiy aloqalarni rivojlantirishga qaratiladi. Katta yoshda esa muloqot tajriba va donolikka asoslanadi, ko'proq maslahat va tarbiyaviy yo'nalishda bo'ladi. Shunday qilib, muloqotdagi yoshga xos xususiyatlar – shaxsning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o'zgarib boradigan, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanadigan muloqot uslublaridir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Lolaxon B., Ayjamal B. PEDAGOGIK INSTITUTLARDA BILIM BERISH MAZNUNI VA BILIM OLISH MALAKASINI SHAKILLANTIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 4. – С. 142-143.
2. Бектурсинова Л. ФАСИЛИТАЦИЯ ВОСИТАСИДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2017. – Т. 35. – №. 4. – С. 50-53.
3. Bektursinova L. X., Madaminova N. O. CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF LITTLE CHILDREN'S MENTION //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 5.
4. Bektursinova L. X., Ismailova G. ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN AGGRESSIVE SITUATIONS IN ADOLESCENTS. – 2024.
5. Bektursinova L., Kamolova S. OILAVIY IJTIMOIYLASHUV VA UNING O 'ZIGA XOSLIGI //MODERN SCIENCE. – 2025. – Т. 2181. – С. 3906.

6. Bektursinova, L. X. "O 'QITUVCHINING IMIDJINI SHAKLLANTIRISH." МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ 1.1 (2024): 294-299.
7. Khojanazarovna, Bektursinova Lalaxan, Turdimuratova Safiya, and Sarsenbaeva Dilnoza. "PSYCHOLOGICAL MEANS AND LEVELS OF COMMUNICATION." AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING 3.5 (2025): 871-875.
8. Xojanazarovna, Bektursinova Lalakhan. "Improving The Pedagogical Mechanism For The Formation Of The Pedagogical Image Of Future Teachers." Journal of Positive School Psychology (2022): 3686-3694.